

MILLIY TARBIYA VA MILLATLARARO MUNOSAABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA SOG‘LOM MILLIY G‘URURNI TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Eshnazarov Nuraziz Muzaffarovich

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr globallashuvi sharoitida milliy tarbiya va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda sog‘lom milliy g‘ururni tarbiyalashning ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonining tarixiy ildizlari, uning insoniyat hayoti va jamiyatga ta’siri, milliy madaniyat va ma’naviyatga keltiradigan ijobiy va salbiy oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Mualliflar globallashuvning milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga ta’siri, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish zaruriyati, milliy-ma’naviy immunitetni shakllantirish masalalarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, ma’naviy qadriyatlar, milliy tarbiya, milliy g‘urur, globallashuv, milliy o‘zlik, madaniyat, yoshlar tarbiyasi, millatlararo munosabatlar, milliy-ma’naviy xavfsizlik, ma’naviy immunitet.

Abstract: This article analyzes the importance of cultivating a healthy national pride in improving national education and interethnic relations in the context of globalization of the 21st century. The historical roots of the globalization process, its impact on human life and society, and its positive and negative consequences on national culture and spirituality are considered. The authors highlight the impact of globalization on national values and youth education, the need to preserve and develop national identity, and the formation of national-spiritual immunity.

Keywords: national pride, spiritual values, national education, national pride, globalization, national identity, culture, youth education, interethnic relations, national-spiritual security, spiritual immunity.

Аннотация: В данной статье анализируется важность воспитания здоровой национальной гордости для улучшения национального образования и межэтнических отношений в контексте глобализации XXI века. Рассматриваются исторические корни процесса глобализации, его влияние на жизнь человека и общества, а также его положительные и отрицательные последствия для национальной культуры и духовности. Авторы подчеркивают влияние глобализации на национальные ценности и воспитание молодежи, необходимость сохранения и развития национальной идентичности и формирования национально-духовного иммунитета.

Ключевые слова: национальная гордость, духовные ценности, национальное образование, национальная гордость, глобализация, национальная идентичность, культура, воспитание молодежи, межэтнические отношения,

национально-духовная безопасность, духовный иммунитет.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat tarixida ilgari kuzatilmagan ijtimoiy, madaniy va axborot oqimlari shakllanmoqda. XX va XXI asrlarda ilm-fan, texnologiya, transport va kommunikatsiya vositalaridagi rivojlanishlar milliy chegaralarni sekin-asta yo'qotib, xalqaro aloqalarni kuchaytirdi. Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari milliy o'zlik, madaniy qadriyatlar va tarbiyaning dolzarbligini yana bir bor kun tartibiga olib chiqmoqda.

Milliy tarbiya – bu yosh avlodda milliy qadriyatlar, ma'naviy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish jarayoni bo'lib, jamiyatning ma'naviy barqarorligi va millatlararo munosabatlarning sifatli rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Sog'lom milliy g'urur esa nafaqat yoshlarning o'z xalqiga, tarixiga va madaniyatiga hurmatini oshiradi, balki ular orasida sog'lom raqobat, fidoyilik va mas'uliyatli fuqarolik hissini rivojlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, XXI asr globallashuvi sharoitida milliy tarbiya va millatlararo munosabatlarni takomillashtirishda sog'lom milliy g'ururni tarbiyalash dolzarb va zamonaviy jamiyat uchun ajralmas vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy g'urur va qadriyatlarning tarbiyada roli, globallashuvning ijobiy va salbiy ta'siri, shuningdek, milliy-ma'naviy xavfsizlikni mustahkamlashning ahamiyati tahlil qilinadi.

Globallashuv individ va jamiyat hayotining barcha jabhalariga mislsiz ta'sir ko'rsatishi oddiy haqiqatga aylanmoqda. Bunday holatda cheksiz axborot oqimlarining o'sishi, sayyoraning yagona yumushga aylanishi, dunyoning bir tomonidagi hodisa haqidagi xabar bir zumda bu tomonga yetib kelishi va ijtimoiy voqelikka ta'sir qilishi ehtimoli ortadi, bu esa barcha jamiyat va davlat institutlarining oldiga davlat xavfsizligini globallashuv prizmasi orqali qayta tahlil qilib ko'rish zamratini qo'ydi.

Hech qanday milliy chegaralami tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi unung yana bir o'ziga xos xususiyatidir.

Shu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta'lim va ahloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy - madaniy globallashuv hamda g'oyaviy ta'sir, targ'ibot va tashviqot bilan bo'g'liq mafkuraviy globallashuv ham sodir bo'lib, xullas ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda va turli xil shaklda namoyon bo'lmoqda.

Ma'naviy sohada: inson ma'naviy dunyosi, jamiyat madaniyati har bir davrda konkret shaklu shamoyil kasb etgan. Kishilik jamiyati o'z rivojlanishida mutlaqo yangi sifatli bosqichga kirgan bugungi kunda ham inson va jamiyat ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda¹.

¹ Ravshanov F. Ma'naviy taraqqiyotga tahdidlar. –T. "Muharrir", 2010. –b.34.

Kishilik jamiyati xilma - xil shakllardagi ijtimoiy munosabatlar, ham zohiriy, ham bo'liniy aloqalar bilan bog'langan yagona birlikni tashkil etadi. Uning mavjud bo'lishi va rivojida ma'naviy - madaniy aloqalarning o'mi va ta'siri ulkan va beqiyosdir.

Insoniyat madaniy taraqqiyotining bosh yo'lini bugungi kunda madaniyatlar ravnaqi inson intellektual salohiyatining o'sishi, ma'naviy ishlab chiqarish strukturasi va mazmunining takomillashuvi, qadriyatlarining insonlar ruhiy dunyosidagi o'mi va ta'sirining oshishi tashkil etadi. Bu madaniy qadriyatlar yaratish hajmi va turlari, ularning jamiyat hayotiga ta'sirining ortgani, ziyolilar safining keskin darajada o'sgani, fan, maorif, san'atga bo'lgan e'tiborining oshishi kabi omillarda ham yaqqol ko'rinadi.

Insoniyat madaniy taraqqiyoti tempi ham jadallashmoqda. Bu chunonchi, ilmiy kashfiyotlar, axborotlar miqdorining va ilm - fan sohasida band bo'lgan kishilar sonining tez o'sayotgani, ilmiy faoliyat hajmining har 10-15 yilda ikki barobarga oshayotganida ham ko'rinadi.

Shunday bo'lishiga qaramay, insoniyat ma'naviyati va madaniyati rivojlanishini tekis jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin emas. Zero, insoniyat bugungi kunda erishgan yutuqlaridan chetda qolayotgan mintaqalar va xalqlar ham yo'q emas. Bu iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi, ichki totuvlik - millatlararo hamkorlik, ijtimoiy ahillik, siyosiy barqarorlikning yo'qligi, bu ham yetmagandek vaqti - vaqti bilan alanganib turadigan fuqarolar urushi kabi omillar ta'sirida saqlanib qolmoqda.

Hech qaysi millat, mintaqalar ma'naviyati, madaniyati bir - biridan mutloq ajralgan holda mavjud bo'lmagan. Madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida har bir milliy madaniyatga o'ziga madaniyat elementlari kirib keladi. Bunday o'zaro ta'sir va boyish jarayoni jamiyat rivojlanishi tezlashishi bilan bir paytda unga mos ravishda o'sib boradi. Ayniqsa XX asrda sanoat, transport, aloqa vositalarida ro'y bergan buyuk o'zgarishlar bu jarayonning yanada shitob bilan kechishini keltirib chiqardi va madaniyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Ammo vaqt bu jarayonlarning ziddiyatli ekanini ham ko'rsatdi.

Yaqin o'tmishda milliy madaniyatlarining o'zaro ta'siri va boyishidek tabiiy, ob'ektiv va qonuniy jarayonni noto'g'ri baholash, bir tomonlama tahlil qilish, baynalmillatlashuv bayrog'i ostida milliy madaniyatlarga, ularning yutuqlariga bepisandlik bilan qarash hukmron bo'lgani, yevropacha turmush tarzi, madaniyati, xulq - odob normalarini milliy hayotga joriy qilishga intilish rasmiy siyosat darajasiga ko'tarilgani milliy madaniyat to'g'risida g'amxo'rlik qilishga esa aksariyat hollarda millatchilik tamg'asi bosilgani bunga misol bo'la oladi.

G'oyat murakkab va ziddiyatli, zafarlar va fojialarga boy bo'lgan tarixiy yo'lni bosib o'tgan insoniyat yangi ming yillikka qadam qo'ydi. Insoniyat, uning ma'naviyati, madaniyati istiqboli, yangi ming yillikdagi qiyofasi ko'p darajada rivojlanishning hozirgi kundagi xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda insoniyat madaniyati rivojiga xos xususiyatlari haqida gap ketar ekan,

aksilmadaniy unsurlarning keng tarqalishidek salbiy hodisalar ham kelib chiqayotganini, madaniy agressiya yangi shakllarda namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Jumladan, ulkan tashkiliy asoslar, moddiy - moliyaviy resurslar va mafkuraviy bosimga tayangan holda an'anaviy jamiyatlarning asrlar davomida shakllangan qadriyatlarining yemirilishiga olib keladigan hodisalar namuna va etalon, universalizm, va globalizm bayrog'i ostida harakat qilishmoqda.

Shu bilan birga, dunyoning turli burchaklarida har xil shiddat bilan kechayotgan milliy uyg'onish ta'sirida milliy - madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishiga, milliy qadriyatlarini tiklashga bo'lgan intilish hissining o'sishi kuzatilayotganini ham ta'kidlash zarur.

Tarixiy taraqqiyot tajribasi ko'rsatadiki, ma'naviy qashshoq va o'zligidan mahrum bo'lgan manqurt millat zaif, itoatkor o'zgalar izmidan yuradigan "beozorgina" bo'lib qolaveradi. Buning oqibatida millatning nafaqat milliy - ma'naviy hayoti barbod bo'ladi, shuningdek uning mustaqilligi ham qo'ldan ketadi va iqtisodiy hayoti ham o'zgalarning xohish - irodasi bilan boshqariladigan bo'ladi.

Bugun globallashuv ta'sirida millat vakillari asosan yoshlarning atrof- muhitga munosabati milliy chegaralardan chiqib, ommaviy shakliga kirib borayotganligi ham millatning zaiflashishiga ta'sir o'tkazmoqda. Jumladan, ba'zi o'zbek yoshlarida atrofida bo'layotgan voqea va hodisalarga beparvolik, ma'suliyatsizlik ommalashib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Ular ongida jamoatchilik tuyg'usi va qadriyatlarga qaraganda G'arbga xos bo'lgan individuallikni o'zlashtirishga intilish kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu ota - ona, aka - uka, opa - singil va qaridosh – urug'larga nisbatan hurmat va muhabbatning yo'qolib borishiga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Ularning qudratli vositalari orqali olib borilayotgan "tarbiyaviy" faoliyati, milliy o'zlikni saqlab qolishga qaratilgan tarbiyaviy jarayonidan ancha ilgari borayotganligi ko'zga tashlanmoqda.

Agar internet va uyali telefonning bugun yoshlarimiz o'rtasida ommaviylashib ketganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu borada tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga ehtiyoj oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Unda millatimiz axloqi, turmush tarzi, mentaliteti urf - odat, an'ana, udum va qadriyatlariga mutlaqo zid bo'lgan ma'naviyatini yoshlarimiz ongiga singdirmoqda hamda oddiy insoniy munosabatlardan tortib, dunyoda mavjud bo'lgan ahloqsizlikning eng jirkanch ko'rinishlari tashviqot qilinmoqda.

Bugun uning ijobati sifatida yoshlarimiz buyuk bobolarimiz asarlarida tarannum etilgan milliy, ma'naviy, ahloqiy, qadriyatlarimizdagi muhabbat, sadoqat, vafo, or - nomus va insonning ichki ma'naviy go'zalligi kabi ulug' tuyg'ulardan bexabar bo'lib qolayotganligida namoyon bo'layotgani sir emas. Internet va televidenie bu tuyg'ularni yo'qqa chiqarmoqda.

Bugun globallashuv jarayonida shakllangan sifat va miqdor jihatdan eng yuksak darajadagi taraqqiy etgan ommaviy axborot vositalari, internet, televidenie, uyali telefon va boshqa vositalarning insonlarga, ayniqsa yoshlarga o'tkazayotgan bosimi natijasida ularning badiiy asarlarni o'qish, undan zavqlanish va o'z ma'naviyatini boyitishga bo'lgan qiziqishlari so'nib borayotganligi ham bugunning real haqiqatidir².

Yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtlarini internet kafelarda o'tkazayotganligi va u yerda behayo filmlarni tomosha qilayotganligi, mazmunan sayoz milliy o'ziga xoslikka zid bo'lgan qumq shovqin - surondan iborat bo'lgan zamonaviy qo'shiqlarni tinglashayotganligi, ularga taqlid qilishga bo'lgan intilishlari kuchayib bormoqda.

Ana shu o'tkazilayotgan ma'naviy bosimga intellektual salohiyati kam rivojlangan, o'zining mustaqil fikri, qarashlari bo'lmagan bir qator yoshlar ko'nikib va ularga taqlid qilishga harakat qilmoqdalar. Bu oxir oqibatda ana shunday yoshlarni milliy xarakterdan mahrum bo'lishga, urf-odat, an'ana, udumlar va qadriyatlarini tan olmasdan hayot kechirishlariga olib kelishi mumkin. Buning millat istiqboli uchun o'ta xatarli, kerak bo'sa uning xavfsizligini barbod etadigan eng yovuz omillardan hisoblanadi. Chunki dunyoqarash va mhiyatdagi milliy - ma'naviy qashshoqlashuvni davolash o'ta murakkab muammo hisoblanadi. Buni davolash uchun, uzoq vaqt va katta mablag' talab etiladi. Shunda ham ana shu o'tkazilayotgan bosimga bardosh bera oladigan, undan himoyalaniish imkoniyatini bera oladigan milliy - ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladigan chinakam milliy - ma'naviy salohiyatni rivojlantiradigan umummilliy harakat va safarbarlikni yuzaga keltirishni amalga oshirishga erishilsagina kelib chiqishi mumkin bo'lgan ma'naviy zarar bir qadar kamaygan bo'lardi.

Xullas, XXI asr globallashuvi inson ongi, qalbi va yuragini yovuz kuchlar tomonidan zabt etish imkoniyatini yuzaga keltiribgina qolmasdan, millatni ham o'z domiga tortishi oqibatida, uning beqiyos go'zalligini yemirishi, kuchlilarning kuchsizlar ustidan ma'naviy hukmronlik qilish uchun ham zamin tayyorlagan jarayonni kuchaytirishga yangi bosqich bo'lib tarix sahifasiga kirib kelmoqda. Uning bugun shiddat bilan avj olishi esa milliy - ma'naviy xavfsizlik uchun xatarli jarayon bo'lib kelmoqda.

Bu jarayon ijobiy jihatlar bilan bir qatorda milliy o'ziga xoslik deganda faqat uzoq tarix qat'ida shakllangan qadriyatlariga tushunishlik, madaniyatda an'ana va ijodkorlik dialektikasining to'g'ri baholamaslik kabi bir yoqlamaligi, muayyan mintaqalarda esa o'ziga madaniy yutuqlariga bepisamdon munosabat kabi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ammo shuni ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi paytda bunday salbiy tomonlar emas, balki ijobiy jihatlar, yaratuvchilik, ijodkorlik jarayoni ustuvorlik qilmoqda. Jahon tarixining tahlili ham yuqoridagi kabi

² Ochildiev A.. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. T. "Muharrir" nashriyoti, 2009. -b.94.

salbiy hodisalar, keskin o'zgarishlar, ijtimoiy silkinishlar davrining ajralmas yo'ldoshi va ulaming o'zi kabi o'tmish ekanidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiytlar ro'yxati:

1. Otamuradov S. Globallashuv va millat. –T., “Yangi asr avlodi”, 2008, 50 b.
2. Ochildiev A.. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. T.: “Muharrir” nashriyoti, 2009. –b.94.
3. Ravshanov F. Ma'naviy taraqqiyotga tahdidlar. –T.: “Muharrir”, 2010. –b.34.
4. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences* 4 (2024): 22-27.
5. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNINI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.
6. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).
7. Xoliqulov, MQ va X.N.Jumanov. "GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI." *Luchshie intellektualnye issledovaniya* 40.1 (2025): 203-210.
8. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.
9. Muhammad, Xoliqulov, and Obruyeva Dilbar. "TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI." *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS* 1.7 (2025): 27-32.
10. Muhammad, Xoliqulov, and Obruyeva Dilbar. "TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI." *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS* 1.7 (2025): 27-32.
11. Muhammad, Xoliqulov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI." *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere* 1.3 (2025): 105-109.

12. Muhammad, X. (2025). GLOBALLASHUV SHAROITIDA YUZ BERAYOTGAN GEOMAFKURAVIY JARAYONLAR TADQIQINING FALSAFIY-METADOLOGIK ASOSLARI. *Scientific and innovative research in the social and humanitarian sphere*, 1(3), 105-109.
13. Yaxshilikov, J., and Muhammadiev N. Milliy g'oya. "O 'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi." *Toshkent, "Cho'пон* (2018).
14. Yaxshilikov, J., and N. Muhammadiev. "National idea-development strategy." *T., Fan nashriyoti* (2017): 158.
15. ЯХШИЛИКОВ, Ж. Я., and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ гоЯ ВА МАФКУРА." (2015).
16. ЯХШИЛИКОВ, ЖЯ, and НЭ МУХАММАДИЕВ. "МИЛЛИЙ гоЯ ВА МАФКУРА."
17. Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda, and Oripov Khasan Abdivakhobovich. "The influence of intellectual competition to social development in the 21st century." *European science* 7 (49) (2019): 44-47.
18. Negmatova, Shakhzoda Shukhratovna, and Khasan Abdivakhobovich Oripov. "THE INFLUENCE OF INTELLECTUAL COMPETITION TO SOCIAL DEVELOPMENT IN THE 21ST CENTURY." *European Science* 7 (2019): 44-47.
19. Shukhratovna, Negmatova Shakhzoda. "Modern Scientific Thinking: Innovative And Euristic Aspects." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 3.10 (2021): 13-17.